

Date: 17th October-2025

**MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARDA IJTIMOIIY MOSLASHUV
JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

Karimova Munira Ibodullayevna

Amaliyotchi psixolog

E-mail: karimovamunira1808@gmail.com

+99891-997-75-93

Annotatsiya: Ushbu mavzuda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonining psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Bolaning oiladan ajralib, bog'cha muhitiga kirishi uning emotsional holati, muloqot ko'nikmalari va shaxsiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Tadqiqotda ijtimoiy muhit omillarining bola moslashuviga ta'siri, shuningdek, ota-ona va tarbiyachining bu jarayondagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh davri, ijtimoiy muhit, ijtimoiy moslashuv, emotsional holat, psixologik yondashuv

Bugungi kunda jamiyatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim bosqichi eng muhim davrdir. Chunki bola shaxsining poydevori aynan shu yoshda shakllanadi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashuvi ularning keyingi ta'lim jarayonlariga muvaffaqiyatli qo'shilishi uchun muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk bor oilaviy muhitdan tashqariga, yangi ijtimoiy muhitga kirib borar ekan, ular psixologik, jismoniy jihatdan o'zgarishlarga duch keladilar. Agar moslashuv jarayoni samarali kechsa, bola bog'chada o'zini xotirjam his etadi va ta'lim dasturlarini yaxshi o'zlashtiradi. Shu sababli bolani maktabgacha ta'lim muassasasi sharoitiga moslashtirish masalasi ilmiy-psixologik va davlat siyosati darajasida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiy hayotga, ya'ni yangi muhit – bolalar bog'chasi, guruhdoshlar, tarbiyachi, jamoaviy o'yinlar bilan tanishadi. Bu bosqichda boladan moslashuv, muloqot, sabr-toqat, his-tuyg'ularini boshqarish kabi ijtimoiy va emotsional ko'nikmalar talab etiladi. "Ijtimoiy muhit" deganda bolaning atrofidagi barcha ijtimoiy aloqalar, ya'ni oila, bog'cha, do'stlar, tarbiyachilar va ijtimoiy normalar tizimi tushuniladi. Bola aynan shu muhit orqali o'zini anglaydi, ijtimoiy rollarni egallaydi, boshqalar bilan muloqotga kirishishni o'rganadi.

Ijtimoiy moslashuv — bolaning yangi muhitga, jamoaga, yangi tartib va pedagogik talablar tizimiga moslashish jarayonidir. Shuningdek, bu jarayon bolaning yangi ijtimoiy muhitda o'zini qulay his etishi, ijobiy munosabatlar o'rnatishi, o'z his-tuyg'ularini to'g'ri ifodalash va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish qobiliyatidir. Bu jarayonning psixologik jihatlari o'rganish tarbiyachilar, psixologlar va ota-onalar uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim dargohiga yangi qadam qo'ygan bola uchun oila muhitidan ajralib, notanish tarbiyachilar va ko'plab yangi tengdoshlar orasiga tushishi sezilarli ruhiy



Date: 17th October-2025

stressni keltirib chiqaradi. Ayniqsa 1–3 yosh bolalar onadan ajralishga juda ta'sirchan bo'lib, yangi muhit va odamlar ularda qo'rquv hissini uyg'otadi. Moslashuv davrida bolalarda ajralish xavotiri kuzatiladi: bola ota-onasidan ayrilgan paytda tashvishlanadi, yig'laydi, qayta-qayta uyga ketishni so'raydi. Shuningdek, emotsional buzilishlar ro'y beradi – bolaning kayfiyati tez o'zgaruvchan, inijqlik, agressiya yoki aksincha passivlik ko'rinishlari paydo bo'lishi mumkin⁶. Moslashuv davomiyligi har bir bolada turlicha bo'ladi. Psixologik adabiyotlarda shartli ravishda moslashuvning uch turi ko'rsatiladi: oson moslashish – taxminan 10–15 kun ichida bola yangi muhitga ko'nikadi; o'rtacha moslashish – 1 oy atrofida; qiyin (uzoq) moslashish – 2 oydan 6 oygacha yoki undan uzun davom etadi. Bolalarning bog'chaga moslashuvi ko'plab omillarga bog'liq. Psixologik tadqiqotlariga ko'ra, bola temperamenti (fe'l-atvori turi), oiladagi tarbiya uslubi, yoshiga nisbatan rivojlanish darajasi va sog'lik holati kabi omillar moslashuv tezligiga ta'sir qiladi. Ilmiy adabiyotlarda moslashuv jarayoni uch asosiy bosqichda kechishi ko'rsatilgan.

1. Dastlabki emotsional bosqich – bola yangi muhitga kirganida begonalarga ishonchsizlik, tortinchoqlik va qo'rquv hissini sezadi.

2. Faol moslashuv bosqichi – bola jamoada o'z o'rnini topishga, o'yinlarda qatnashishga urinadi.

3. Barqaror moslashuv bosqichi – bola guruhda o'zini erkin tutadi, do'st orttiradi, muloqot jarayonidan zavq oladi.

Bu jarayonni muvaffaqiyatli kechishi uchun quyidagi psixologik omillar muhim:

- Oila muhiti – ota-onaning mehr-muhabbati, bolaga beriladigan emotsional qo'llab-quvvatlash moslashuvni osonlashtiradi.

- Tarbiyachi shaxsiyati – mehribon, sabrli, bolaga individual yondashuvchi tarbiyachi bolaning o'ziga ishonchini oshiradi.

- Guruh iqlimi – iliq, ijobiy, raqobatsiz muhit bolada xavfsizlik hissini uyg'otadi.

- O'yin faoliyati – o'yin ijtimoiy moslashuvning eng tabiiy vositasidir. Bola o'yin orqali muloqot, hamkorlik, o'zini tutish qoidalarini o'rganadi. Moslashuv davrining ahamiyati shundaki, bu jarayon muvaffaqiyatli kechgan taqdirda, bola o'zini xavfsiz his qiladi, yangi muhitda erkin harakat qiladi va ijtimoiylashuv jarayoniga faol qo'shiladi. Aksincha, moslashuvda muammolar kuzatilsa, bu bolaning kelajakdagi o'qish va rivojlanish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolaning ijtimoiy moslashuvini osonlashtirishda quyidagi psixologik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Trening va rolli o'yinlar: “Do'stim bilan tanishaman”, “Men va guruhim” kabi mashg'ulotlar bolalarda empatiya va muloqot ko'nikmasini rivojlantiradi.

- Emotsional qo'llab-quvvatlash: tarbiyachi tomonidan maqtov, iliq so'z, quvnoq kayfiyat moslashuvni tezlashtiradi.

⁶ Ibragimova O.K. (2024). *Bolani maktabgacha ta'lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillari* (3–4 yoshli bolalar misolida). Ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.

Date: 17th October-2025

- Moslashuv davri monitoringi: psixolog bola xulqi, his-tuyg'usi va ijtimoiy faolligini kuzatib boradi.

Shuningdek, oila bilan hamkorlikda ishlash — ijtimoiy moslashuvning eng muhim garovidir. Bola bog'chadagi hayotini ota-onasi bilan baham ko'rsa, u o'zini xavfsiz va ishonchli his qiladi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yosh davri — bolaning ijtimoiy hayotga kirib borish, muloqot qilish, do'st orttirish, hissiyotlarni boshqarish va o'z "Men"ini shakllantirish davridir. Shu bois, bu jarayonning psixologik jihatlarini chuqur o'rganish va unga to'g'ri yondashish — sog'lom, faol, ijtimoiy jihatdan moslashgan shaxsni tarbiyalashning eng muhim shartidir. Oila, tarbiyachi va psixologning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida bola ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topadi, ijobiy hissiyotlarni boshqarishni o'rganadi va keyingi ta'lim bosqichlariga tayyor bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
2. Nishanova Z. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
3. Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2017.

